

BANKLARNI TRASFOMATSIYA QILISH SHAROITIDA MASOFADAN XIZMAT KO'RSATISH TIZIMINI OMMALASHTIRISH

Bekmurodov A.A.

SamISI "Bank ishi" kafedraasi assistenti

Annotatsiya: Maqolada banklarni raqamli transformasiyasini amalga oshirish bilan bir qatorda, masofadan bank xizmatlarini ko'rsatishning hozirgi kun holati va muammolari va xulosalar, tavsiya va takliflar borasida fikr yuritiladi

Kalit so'zlar: transformasiya, ekotizim, to'lov tizimi, chakana to'lov, elektron pullar, risk, kibertahdid, bank xizmatlari ofis, masofadan identifikasiya qilish.

PROMOTION OF THE REMOTE SERVICE SYSTEM DURING THE TRANSFORMATION OF BANKS

Bekmurodov A.A.

assistant of department of "Banking" SamIES

Annotation: In addition to the issues of implementing the digital transformation of banks, the article discusses the current state and problems of providing remote banking services, as well as presents conclusions, recommendations and suggestions.

Keywords: transformation, ecosystem, payment system, retail payment, electronic money, risk, cyber threat, banking services office, remote identification.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar iqtisodiyotimizning barcha tarmoqlariga jadallik bilan kirib bormoqda. Elektron to'lovlarning hamda electron tijoratining rivojlanishi, turli to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchilar

o'rtasida raqobat muhitining shakllanishi, kuchayishi, chakana to'lovlar bo'yicha tranzaksion xarajatlarning qisqarib borishi, shuningdek, to'lovlarni amalga oshirishda moliyaviy institutlarning vositachilikni talab etmaydigan yangiliklari to'lov vositalarining kup fuksiyaliarini (xizmatlar paketini) joriy qilinishini taqozo etmoqda.

Keying yillarda an'anaviy bank xizmat turlarining o'rnini raqamli banklarning xizmat turlari egallamoqda. Chunki banklar xizmat turlarini takomillashtirib bormas ekan, ular daromadini va mijozlar sonini cherlanib imkoniyati kamayib boraveradi.

Hozirgi bank xizmatlarining taklifi boshqa xizmat turlaridan ortda qolmasligi yani moliyaviy ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish, shaffoflikni oshirish, tranzaksiyalarni tezkor qayta ishlash, masofadan xizmatlarni ko'rsatish, identifikatsiya qilishning ishonchli usullari va mijozlar xoxish istaklarini ularning hayot tarziga qulaylik yaratishga imkon beradigan yanada sifatli xizmatlarni taqdim etishga yordam berishidadir.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi «2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi PF-5992-sonli farmonida nazarda tutilgan. Banklar xizmat ko'rsatishni modernizatsiya qilish, banklarning samarali infratuzilmasini yaratish va faoliyatini avtomatlashtirish, shuningdek, banklar faoliyatiga xos bo'lmagan funksiyalarni bosqichma-bosqich bekor qilish orqali bank tizimining samaradorligini oshirish, davlat ulushi mavjud tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish, bank ishining zamonaviy standartlarini, axborot texnologiyalari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish, aholi va kichik biznes uchun masofaviy xizmatlarni keng joriy qilish, kam xarajatli xizmat ko'rsatish nuqtalari tarmog'ini rivojlantirish, shuningdek, respublika yagona moliya tizimining o'zaro to'ldiruvchi qismi sifatida nobank kredit tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali moliyaviy xizmatlar ommabopligini va sifatini oshirish uchun

2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasini ishlab chiqish belgilandi.¹.

Raqamli sifatida pozitsiyalanayotgan tijorat banklari tomonidan taklif etilayotgan xizmatlar (xizmatlar mijozlarning alohida guruhlariga yo'naltirilmagan) umumlashtirilgan holda quyidagilardan iborat:

- ✓ kredit operatsiyalari (chakana kreditlar, avtokredit);
- ✓ depozit operatsiyalari;
- ✓ mobil ilovalar orqali operatsiyalar,
- ✓ uzaytirilgan to'lovlar;
- ✓ pul o'tkazmalari;
- ✓ to'lovlar;
- ✓ bank kartalari bo'yicha operatsiyalar.



Amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarni qayd etish mumkin:

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги «2020-2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизimini isloh қилиш стратегияси тўғрисида»ги ПФ-5992-сонли фармони

birinchidan, ilmiy manbalarda chakana bank xizmatlari atamasining umume'tirof etilgan talqini taklif etilmagan, shuningdek, qonunchilik normalari va me'yoriy hujjatlarda chakana, kichik biznes va korporativ mijozlarga mo'ljallangan xizmatlar aniq belgilab berilmagan. Buning natijasida chakana bank xizmatlar turli manbalarda turlicha talqin etiladi. Mazkur talqinlarning umumiy xususiyati chakana xizmatlar jismoniy shaxslarga, korporativ xizmatlar biznes sub'ektlariga qaratilgan degan xulosada o'z ifodasini topadi;

ikkinchidan, amaliy bank (an'anaviy va raqamli) faoliyatida taklif etilayotgan chakana bank xizmatlari moliyaviy xususiyatga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish bilan cheklanmasdan, moliyaviy savodxonlik borasida yordam, konsultatsiyalar berish, oilaviy va shaxsiy byudjetni rejalashtirish, hamkorlikdagi (oilalar a'zolari yoki yaqin insonlar bilan birgalikda) hisobvaraqlarni yuritish, xarajatlar bo'yicha tegishli limitlarni belgilash, davolanish va xordiq chiqarish borasida maslahatlar berish va boshqalarni qamrab oladi;

uchinchidan, shaxsiy va moliyaviy ma'lumotlarning sir saqlanishi, tranzaksiyalarni amalga oshirishda ko'plab turdagi valyutalardan (jumladan, virtual valyutalar) foydalanish imkoniyatining yaratilishi, tijorat banklari bilan bir qatorda, ichki to'lov tizimlari (xususan, Alipay, WeChat Pay va boshqalar) va turmush tarziga oid xizmatlarni taklif etuvchi tashkilotlar bilan API orqali ulanish, marketpleyslardan foydalanish va boshqalar chakana xizmatlar ko'lami va turlari kengayi borayotganligidan dalolat beradi.

Qayd etilgan xususiyatlardan kelib chiqqan holda bank chakana xizmatlari – shaxsning moliyaviy va turmush tarzi bilan bog'liq xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun mo'ljallangan bank xizmatlari degan xulosa qilish mumkin. Bunda shuni e'tiborga olish zarurki, mazkur xizmatlar pullik yoki bepul bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdagi PF-5953-son Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida" gi № O'RQ-578 Qonuni. 01.11.2019 y.
3. Rustamov M. ECONOMETRIC ANALYSIS OF MACROECONOMIC INDICATORS AND SMALL BUSINESS LOANS //International Finance and Accounting. – 2022. – T. 2022. – №. 1. – S. 5.
4. Togayev S., Ergashev J. PECULIARITIES OF ORGANIZATIONAL STRATEGY FORMATION //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 1. – S. 459-464.
5. Bekmurodov A. A. IMPROVING THE INTRODUCTION OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN COMMERCIAL BANKS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 9. – №. 10. – S. 355-357.
6. Bekmurodov A. THE IMPACT OF TRANSFORMATION PROCESSES ON THE ACTIVITIES OF COMMERCIAL BANKS //Archive of Conferences. – 2021. – S. 52-54.
7. Malikova D. METHODOLOGY FOR EFFECTIVE ASSESSMENT OF THE LEVEL OF ECONOMIC SECURITY OF BANKS //Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects. – 2023. – S. 96-98.
8. Zuhur N. et al. TRANSITION OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS OF UZBEKISTAN TO A CREDIT-MODULAR SYSTEM //ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. – 2022. – T. 3. – №. 1. – S. 123-127.